

## O'ZBEKISTONDA AXBOROT TEXNOLOGIYLARI VA XAVFSIZLIGI SOHASIDAGI JINOYATLARNING OLDINI OLISHNING MUHIM AHAMIYATI.

*iiv malaka oshirish institututi tashkiliy bo'lim boshlig'i  
Mo'minov abdumalik abdumajidovich*

**Annotatsiya.** O'zbekistonda axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq tendensiyalarning mazmun-mohiyati ohib berilgan. jumladan, ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlari, mavjud muammolar ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. umuman olganda, mamlakatimizda axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi va uni yanada samarali amalga oshirishning istiqbollari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Axborot texnologiyalari, jinoyatlar, oldini olish, "Global to'r", "Umumjaxon to'r", "Butunjaxon to'r", firibgarlik, o'g'rilik, kiberhujum, telekommunikatsiya, innovatsion rivojlanish, jamoat, xavfsizlik, global, axborot, texnologiya, raqamli texnologiya, internet, ma'naviyat, xakerlar.

**Аннотация.** Раскрыта суть тенденций, связанных с внедрением современных информационных технологий в профилактику преступлений в сфере информационных технологий и безопасности в узбекистане. включая научное исследование основных направлений этого процесса и существующих проблем. в целом проанализирована эффективность проводимой в нашей стране работы по предупреждению преступлений в сфере информационных технологий и безопасности и перспективы ее более эффективной реализации.

**Ключевые слова:** Информационные технологии, преступность, профилактика, «глобальная сеть», «всемирная паутина», «всемирная паутина», мошенничество, кража, кибератака, телекоммуникации, инновационное развитие, общественность, безопасность, глобальный, информация, технологии, цифровые технологии, интернет, духовность, хакеры.

**Abstract.** The essence of the trends related to the introduction of modern information technologies in the prevention of crimes in the field of information technologies and security in Uzbekistan is revealed. In particular, the main directions of this process, existing problems are scientifically studied. In general, the effectiveness of the work carried out in our country to prevent crimes in the field of information technologies and security and the prospects for its more effective implementation are analyzed.

**Keywords:** Information technologies, crimes, prevention, "Global network", "Global network", "Global network", fraud, theft, cyberattack, telecommunications,

innovative development, public, security, global, information, technology, digital technology, Internet, spirituality, hackers.

O‘zbekistonda jamoat axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlarning oldini olishni ta’minlash tizimiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish masalasi uzoq yillardan buyon davom etmoqda. Ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda jinoyatlarni oldini olish sohasida "raqamli" texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada davlat rahbari va hukumat tomonidan qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati hamda ularni amalga oshirish jarayonlariga e’tibor qaratilgan. Xususan, jinoyatlarni oldini olish hamda xavfsizlik tizimlarini joriy etish va ularning ishslash bosqichlarida fuqarolarning huquqlari himoyasi, qonuniylik, shaffoflik va samaradorlik bilan bog‘liq masalalar tadqiq qilingan.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, ayni vaqtida axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda innovatsion texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalari, ushbu yo‘nalishda mamlakatning strategik maqsadlarining mazmun-mohiyati, aynan zamonaviy texnologiyalarini jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga joriy etish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar sohasida jinoyatlarni oldini olish faoliyatining yanada samarali bo‘lishiga imkon beradi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlarning oldini olish jarayonlarida fuqarolar va fuqarolik jamiyatni institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi<sup>1</sup>.

Shuningdek, jamoat xavfsizligi tizimiga ilg‘or zamonaviy texnologiyalarini joriy etish, bir qator qulayliklar bilan birgalikda xalqaro maydonda mamlakatning ijobiy imiji shakllanishiga va jinoyatchilikka qarshi kurashda yuqori samaradorlikka erishishga asos yaratadi.

Global taraqqiyot sharoitida axborot texnologiyalari mohiyatini oshirishning yanada zamonaviy, innovatsion usullarini izlab topish, axborotlashtirish jarayoniga har tomonlama ko‘maklashish, ularni hayotga keng joriy etish davlat faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Zero, axborotlashtirish tizimida davlat siyosatini olib borish masalasi strategik ahamiyatga ega vazifadir<sup>2</sup>.

Dunyoda axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashish muammolari tobora global ahamiyat kasb etmoqda. Hususan BMT Bosh Assambleyasi, Yevropa kengashi, ShHT, MDH, Arab davlatlari ligasi va boshqa tashkilotlar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan jinoi

<sup>1</sup> A.M.Abjalov “O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari” T-2025.

<sup>2</sup> Х.Б. Абдреймов Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар ва улардан химояланиш усуллари ИИВ Академия Магистратура ингловчиси.

maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish bo‘yicha halqaro huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi vaqtida **7 milliardga** yaqin inson (dunyo aholisining 95%) elektr aloqasining ko‘chma tarmoqlari bilan qamrab olingan<sup>3</sup>, yiliga kiberjinoyatchilik oqibatida yetkazilgan moddiy zararning miqdori dunyo YaIMning **1 %ni** tashkil etadi<sup>4</sup>.

Yangidan-yangi turlari bilan tilga olinadigan kiberjinoyatchilikning ijtimoiy hayotimizga kirib kelganiga ham ancha bo‘ldi va uni asrimizning global muammolari qatoriga qo‘srimiz mumkin. Uning bizga ma’lum bo‘lgan virusli dasturlarni tarqatish, parollarni buzib kirish, kredit karta va boshqa bank rekvizitlaridagi mablag‘larni o‘zlashtirish talon-taroj qilish, shuningdek Internet orqali qonunga zid axborotlar, xususan bo‘hton, ma’naviy buzuq ma’lumotlarni tarqatish bilan bashariyat hayotiga katta xavf solayotganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Internet (ingl. Internet) – axborotni saqlash va uzatish uchun mo‘ljallangan butunjahon umumlashtirilgan kompyuter to‘ridir. Ko‘pincha “Umumjahon to‘ri” yoki “Global to‘r” deb nomlanadi. Uning asosida “Butunjahon o‘rgimchak to‘ri” (World Wide Web, WWW) va boshqa aloqa sistemalari faoliyat yuritadi.

Hozir butun dunyodagi insoniyatning 63 foizi internetdan foydalanadi. Qariyb bir yilda internet foydalanuvchilari soni 200 millionga ortgan. Foydalanuvchilarining asosiy qismi (**92,4 foiz**) mobil qurilmalar orqali internetdan foydalanadi. O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari soni **27 milliondan** oshgan, shundan **25 milliondan** ko‘prog‘i mobil internet foydalanuvchilari hisoblanishadi<sup>5</sup>.

Axborot texnologiyalarining keng miqyosda rivojlanishi bir vaqtning o‘zida ko‘p turdagji jinoyatlarning sodir etilishiga imkon yaratdi, o‘z navbatida ushbu turdagji jinoyatlarni aniqlash va ularni oldini olishda yuqori bilim va kasbiy tayyorgarlikni talab qilmoqda. Shunday qilib, “axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyat” kompyuterlar va ma’lumotlarni qayta ishlash tizimlaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoiy qilmish bo‘lib, buning uchun qonunchilikda jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Shu bois, fuqarolar o‘rtasida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar to‘g‘risida ma’lumotlarni tarqatish va targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish zarur.

Axborotlashgan jamiyat tezlik bilan shakllanib, axborot dunyosida davlat chegaralari degan tushuncha yo‘qolib bormoqda. Jahon kompyuter tarmog‘i davlat boshqaruvini tubdan o‘zgartirmoqda.

<sup>3</sup> Расулов А. К. Ахбороттехнологияларивахавфсизлигисоҳасидаги жиноятларга қарши курашишнинг жиноят-хуқуқий ва криминологик чораларини такомиллаштириш. Юрид. фанлар доктори диссертациясининг автореферати. Т., ИИВ Академияси, 2018. - Б-5.

<sup>4</sup>. <http://www.statista.com/The StatisticsPortal>.

<sup>5</sup> <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-internet-xizmatidan-foydalanuvchilar-soni-272-milliondan-oshdi>

Hududiy joylashishidan qat’iy nazar, kundalik hayotimizga turli xildagi axborotlar internet xalqaro kompyuter tarmog‘i orqali kirib keladi. Shuning uchun ham mavjud axborotlardan noqonuniy foydalanish, o‘zgartirish, yo‘qotish va ularga kirish kabi muammolardan himoya qilish dolzarb masala bo‘lib qoldi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har yili **500 milliondan** ortiq kiberhujumlar uyushtiriladi. Har soniyada dunyodagi har **12 nafar** insondan biri kibermakonda sodir etilgan hujumlar qurboniga aylanmoqda. Xususan, AQSh, Fransiya, Angliya, Belgiya, Germaniya, Luksemburg kabi davlatlarda kiberjinoyatchilik ko‘rsatkichi umumiylar jinoyatchilikning **60–65 foizini** tashkil etadi.

Ekspertlarning hisob-kitobicha, kiberhujumlarning asosiy qismi maxfiy ma’lumotlarni qo‘lga kiritish, ularni o‘zgartirish yoki yo‘qotish, foydalanuvchilardan pul talab qilish yoki biznes jarayonlarini izdan chiqarishga qaratilmoqda. Buning natijasida bir yilda dunyo iqtisodiyoti o‘rtacha **20 milliard** AQSh dollaridan ziyod miqdorda zarar ko‘rmoqda.

O‘zbekistonda ham so‘nggi uch yilda kiberjinoyatlar **8,3 baravarga** ko‘payib, umumiylar jinoyatchilikning **5 foizini** tashkil etmoqda. Masalan, kibermakonda firibgarlik bilan bog‘liq holatlar **13 baravarga**, o‘g‘rilik **20 baravarga**, tovlamachilik, tuhmat va haqorat qilish bilan bog‘liq jinoyatlar esa **4,9 baravarga** ortgan.

Jinoiy-huquqiy tushunchada kompyuter axboroti axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning predmeti hisoblanadi. Masalan bunday holatlar Jinoyat kodeksi 278<sup>1</sup>, 278<sup>2</sup>, 278<sup>4</sup>, 278<sup>6</sup> va 278<sup>7</sup>-moddalarining dispozitsiyalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Boshqa hollarda esa predmetning aniqlanishi jinoyat tarkibi boshqa elementlarining aniqlanishi bilan bog‘liq (JKning 278<sup>3</sup> va 278<sup>5</sup>-moddalari).

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga oid bobining xususiyati shundaki, unda axborotning alohida turi – kompyuter axboroti haqida so‘z boradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta’kidlash mumkinki, ushbu turdagilari jinoyatlar axborot texnologiyalaridan qonuniy, xavfsiz foydalanishni ta’minlovchi munosabatlarga bevosita tajovuz qiladi hamda foydalanuvchilarning axborot texnologiyalari sohasidagi qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish taklif etiladi:

**birinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismi “v” bandini “telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog‘idan yoki elektron to‘lov vositalaridan foydalanib” tarzida bayon etish, 273-moddasi 2-qismini “telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa” tahriridagi yangi “d” bandi bilan to‘ldirish.

Sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatlari tahlil qilinganida, aksariyat bu turdag'i jinoyatlar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa, mobil ilovalar orqali bank plastik kartalaridan pullarni firibgarlik va o'g'rilik qilish orqali o'zlashtirish holatlari ko'paymoqda.

Amaldagi Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismi "v" bandida yoki 169-moddasi 3-qismi "b" bandida kompyuter texnikasidan foydalanib sodir etilgan firibgarlik va o'g'rilik jinoyatlari uchun javobgarlik belgilangan. Biroq "Kompyuter texnikasidan foydalanib sodir etish" tushunchasi tor ma'noda bo'lib, hozirda bu turdag'i jinoyatlarning sodir etish usulini to'liq qamrab olmayapti.

Qolaversa, mazkur moddani shu yo'nalishda 2022 yil 15 aprelda qabul qilingan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun talablariga moslashtirish lozim.

Taklif etilayotgan "*Telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'idan yoki elektron to'lov tizimlaridan foydalanib*" jumlesi Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 159<sup>6</sup>-moddasida o'z aksini topgan bo'lib, ushbu qilmish uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilangan. Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 159<sup>3</sup>-moddasida elektron to'lov vositalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, Ukraina Jinoyat kodeksining 190-moddasida, Latviya Jinoyat kodeksining 177<sup>1</sup>-moddasida qonunga xilof ravishda elektron hisoblash mashinasini texnikasidan foydalanganlik va avtomat tizimida ma'lumotlarga ishlov berishda firibgarlik sodir etganlik uchun maxsus jinoiy javobgarlik belgilangan;

**ikkinchidan**, mobil ilova akkauntini faollashtirishda (telefon apparatining IMEI kodi, IP-manzillar ro'yxatidan tashqari) foydalanuvchining yuz ko'rinishi (Face ID), geografik joylashuv (geopozitsiya - Location) ma'lumotlarini to'liq kiritishga doir texnik shartni joriy etish.

**Ma'lumot uchun:** 2017 yilda Rossiyadagi "Sberbank" hamda "Tochka" nomli mobil ilovalarida "Face ID", "Location" funksiyasining joriy etilishi ular bilan bog'liq jinoyatlarning **85 %**ga kamayishiga olib kelgan. Mazkur amaliyotning yo'lga qo'yilishi mobil ilovalar orqali sodir qilinayotgan jinoyatlarning kamayishiga, jinoyatni sodir qilgan shaxs hamda joylashgan manzili haqidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida aniqlashga, moliya xizmatlarini ko'rsatish sub'ektlari hamda dasturiy ta'minotdagi xavfsizlik darajasi yaxshilanishiga, fuqarolarning plastik kartalaridagi mablag'lari ishonchli muhofaza qilinishi ta'minlanishiga xizmat qiladi;

**uchinchidan**, "Ropulation of Uzbekistan" axborot-qidiruv-ma'lumotnomasi tizimini joriy qilish va bunda sun'iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish.

Dunyoning yetakchi davlatlari (Italiya, AQSh va h.k.) tajribasiga ko'ra, mamlakat aholisining har birining tug'ilganidan boshlab vafot etguniga qadar barcha jarayon, jumladan bog'chada, mакtabda (litsey, kollej, texnikum va h.k.), oliy ta'lim

muassasasida ta'lif olish va ish joyidagi mehnat qilish jarayonlarida uning fe'l-atvori, qiziqishi, atrofidagi insonlari, oilaviy ahvoli va h.k. ma'lumotlari doimiy va muntazam to'ldirilib boriladigan, markazlashtirilgan, ruxsat darajalari belgilangan "Ropulation of Uzbekistan" axborot-qidiruv-ma'lumotnomasi tizimini joriy qilish va bunda sun'iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish taklif etiladi. Bu tizim mamlakatimiz aholisi to'g'risida barcha ma'lumotlarni jamlaganligi sabab jinoyatlarni "issiq izi"dan ochish har bir kriminal vaziyatda aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun xizmat qiladi. Mazkur tizimning ichki ishlar tizimlariga joriy qilinayotgan raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi bugungi kunda jinoyatlarni jilovlash uchun eng katta samara beradigan tadbirlardan biri bo'ladi;

**to'rtinchidan**, ijtimoiy tarmoqlarda taniqli bo'lgan bloger, vayner hamda tiktokerlardan keng foydalangan holda axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha targ'ibot-tashviqot tadbirlarini yanada kuchaytirish.

So'nggi vaqtarda aholining huquqiy madaniyatini oshirishda, jinoyatchilikka qarshi kurashda ijtimoiy tarmoqlarning roli oshib bormoqda.

Xususan, ayrim bloger, vayner, tiktokerlar tomonidan jamiyatning barcha ijtimoiy sohalarida bo'layotgan jarayonlarni turli ko'rinishlarda namoyish etishlari millionlab fuqarolar tomonidan tomosha qilinib, ijtimoiy tarmoqlarda aholi orasida muhokamalar qilinmoqda.

Hozirda aholining huquqiy madaniyatini oshirishda, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda bloger, vayner, tiktokerlarning xizmatlaridan foydalanishni kuchaytirish orqali fuqarolarni o'ziga jalb qiladigan, ko'plab muhokamalarga sabab bo'ladigan ijtimoiy roliklar, karikaturalar, videoroliklar, bukletlar, sur'atlar ishlab chiqish va ularni aholi orasida, ayniqsa, bloger, vayner, tiktokerlarning shaxsiy profillarida namoyish qilish maqsadga muvofiqdir<sup>6</sup>.

### Foydalangan Adabiyotlar:

1. A.M.Abjalov "O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari" T-2025.
2. X.B. Абдуреймов Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар ва улардан химояланиш усуллари ИИВ Академия Магистратура ингловчиси.
3. Расулов А. К. Ахбороттехнологияларивахавфсизлиги соҳасидаги жиноятларга қарши курашишнинг жиноят-хуқуқий ва криминологик чораларини такомиллаштириш. Юрид. фанлар доктори диссертациясининг автореферати. Т., ИИВ Академияси, 2018. - Б-5.

<sup>6</sup> B.A.Umirzakov IIV Akademiyasida o'tkazilgan "Jinoyatchilikka qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanish" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2024 yil 8 iyun), B-30-35.

4. [http://www.statista.com/The StatisticsPortal\).](http://www.statista.com/The StatisticsPortal)
5. <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-internet-xizmatidan-foydalanuvchilar-soni-272-milliondan-oshdi>
6. B.A.Umirzakov IIV Akademiyasida o‘tkazilgan “Jinoyatchilikka qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanish” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2024 yil 8 iyun)., B-30-35